



Journal of Natural Science

№4
(2021)

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАХРИР ХАЙЪАТИ</u>	<u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош мухаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош мухаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У – Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Кодиров Т- к.ф.д, профессор4. Абдурахмонов Э – к.ф.д., профессор5. Султонов М-к.ф.д, доц6. Яхшиева З- к.ф.д, проф.в.б.7. Рахмонкулов У-б.ф.д., проф.8. Хакимов К –г.ф.н., доц.9. Азимова Д- б.ф.н.10. Мавлонов Х- б.ф.д., доц11. Юнусова Зебо – к.ф.н., доц.12. Гудалов М- фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)13. Мухаммедов О- г.ф.н., доц14. Хамраева Н- фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)15. Рашидова К- фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц16. Мурадова Д- фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чикарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**GEOGRAFIYA DARSLARIDA TAQDIMOT YARATISHNING O'ZIGA
XOS TOMONLARI**

Haydarova Surayyo Abdusalomovna¹, Jo'ldiyeva Laylo Sobir qizi²

Yusufov Jonibek Rajabboy o'g'li³

haydarova2019@gmail.com

¹Haydarova Surayyo Abdusalomovna – Jizzax davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida o'qituvchisi.

²Jo'ldiyeva Laylo Sobir qizi – Jizzax davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar fakulteti, Geografiya o'qitish metodikasi yo'nalishi 3 – kurs talabasi.

³Yusufov Jonibek Rajabboy o'g'li - Jizzax davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar fakulteti, Geografiya o'qitish metodikasi yo'nalishi 3 – kurs talabasi.

Annotatsiya: maqolada ta'lim jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalarni qo'llashning samaralari hamda taqdimot tayyorlash yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, axborot kommunikatsiya, taqdimot.

Аннотация: В статье даны рекомендации по эффективности использования информационно-коммуникационных технологий в образовании и подготовке презентаций.

Ключевые слова: учебный процесс, информационная коммуникация, презентация.

Annotation: In the state of recommendations on the effectiveness of the use of information and communication technologies in education and preparation of presentations.

Keywords: educational process, information communication, presentation.

Darslarda, xususan geografiya darslarida axborot texnologiyalari va kompyuterdan foydalanish hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi. Ta'lim sifatini oshirishda texnik vositalarning o'rni juda katta. Lekin kompyuter texnologiyalaridan foydalanish birmuncha malaka va tajribani talab etadi. Xususan, kompyuterdan foydalanib taqdimotlar yaratish va darslarda foydalanish uchun o'qituvchi kompyuter savodxonligidan tashqari ma'lumotlarni izchil namoyish qila bilishi va izohlay olishi kerak bo'ladi.

Geografiya darslarida taqdimotdan foydalanish boshqa usullardan ko'ra yaxshi samara beradi. Maktab geografiya kursining barcha bosqichlarida turli mavzularda taqdimot yaratish va namoyish qilish imkoniyati mavjud. Lekin taqdimot yaratish o'ziga xos bosqichlarga egaki, materiallarni tanlay bilish, ularni

jonlantirish va ranglar berishda to‘g‘ri yo‘nalish olish muhimdir. Turli sinfga mansub o‘quvchilarning qiziqish va yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur bo‘ladi.

Taqdimot yaratish uchun ma‘lumotlar va materiallarni yig‘ish, tanlash va joylashtirish, ularni kerakli rang, effekt va harakatlar, shuningdek tovushlar bilan ta‘minlay bilish uchun o‘qituvchi kompyuterda taqdimot yaratishga mo‘ljallangan dasturda ishlashni yaxshi o‘rgangan bo‘lishi kerak.

Taqdimot yaratish uchun kompyuter dasturlarida maxsus muharrirlar yaratilgan. Bu muharrir “PowerPoint” deb ataladi va uning vazifasi aynan taqdimotlar yaratishga mo‘ljallangan. Aytish joizki, taqdimotlar faqat ta‘lim yo‘nalishi uchun emas balki turli sohalarda yaratilgan g‘oya, loyiha va takliflar, rejalarini ko‘rgazmali va jonli tarzda namoyish qilish uchun yaratiladi. Ta‘lim sohasida taqdimot darslarining ahamiyati shundaki, har qanday mavzuning mazmuni, tarkibi, hamda izchilligini turli diagramma, suratlar va filmlar orqali ko‘rsatib berish mumkin. Geografiya darslarida mavzular va materiallarni taqdimot shaklida o‘quvchilarga ko‘rsatish va dars o‘tishning samarasi juda yuqori bo‘ladi.

Taqdimot darsini dars mavzusi yoki, erkin tanlangan mavzulardan tayyorlash mumkin. Dars uchun mo‘ljallangan taqdimot dars soatiga ajratilgan mavzu asosida, darslik materiallariga qo‘shimcha namoyish etiladigan ma‘lumotlar bilan to‘ldirilgan holda tayyorlanadi. Lekin bu taqdimot hajmi ancha kichik bo‘lishi talab etiladi, chunki maktab dars soatlari taqdimotlar namoyishini murakkab darajada tayyorlashga ketadigan vaqtga sig‘maydi. Shuning uchun darslar uchun taqdimotlar tayyorlashda muayyan tartibga rioya qilish talab etiladi. Maktab geografiya darslarida taqdimotni aynan bir hodisa yoki jarayonning sodir bo‘lishi yoki yuzaga kelishi asosida tayyorlash maqsadga muvofiq. Bu butun mavzuga oid materiallarni qamrab olishi va faqat namoyishdagi iborat bo‘lishi shart emas. Masalan “Tabiatda suvning aylanishi” mavzusida suvning bug‘lanishidan va yomg‘irga aylanishigacha bo‘lgan jarayon va katta hamda kichik aylanish doirasi jonlantirilgan tarzda ko‘rsatilishi tavsiya etiladi. Bu hodisaning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillar va boshqa ma‘lumotlar o‘qituvchi tomonidan og‘zaki tushuntirilib borilishi taqdimotning samarasini ta‘minlaydi. Taqdimot darslarining murakkabligi yuqorida ta‘kidlanganidek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq kelishi kerak. Geografik tushunchalarning shakllanishida ayniqsa bunga rioya qilinishi shart, chunki geografiya fani tadqiq qiladigan hodisalar o‘quvchilarning fizika, ximiya, biologiya va tarix darslarida tanishadigan masalalar bilan bog‘liqdir. Ba‘zi tabiiy va ijtimoiy hodisalar haqida tushuncha hosil qilmay turib ularning mohiyatiga qadar kirib boradigan geografiya darslariga tayyor bo‘lishi mumkin emas.

Geografiya darslari uchun taqdimotlar yaratish, o‘qituvchi uchun yangi mavzuni o‘tish yoki o‘quvchilar tomonidan amaliy topshiriqlarni bajarish

maqsadida amalga oshirilishi mumkin. O‘qituvchi yangi mavzu uchun taqdimot yaratishi uchun dars mavzusiga oid rasmlar, fotosuratlar diagramma va geografik kartalar bilan ta’minlangan bo‘lishi talab etiladi. O‘quvchilarning amaliy ish bajarishlari esa har bir o‘quvchi biron geografik hodisa yoki tabiiy muhitga oid narsani tasvirlashi va bu hodisani sodir bo‘lish izchilligida namoyish qilinadigan slayd yaratishi bilan belgilanadi. Masalan, o‘quvchiga bulutlar va ularning harakati, chaqmoq chaqishini tasvirlashi va unga dasturda mavjud momaqaldiroq ovozini kiritish topshirig‘ini berish mumkin, bu orqali o‘quvchi kompyuter texnologiyalari yordamida o‘z bilimini namoyish qilgan bo‘ladi.

Geografik sayohatlar haqida taqdimot birmuncha murakkabliklarga ega. Bu sayohat yo‘nalishlari berilgan kartalar, suratlar va ularning uzviyligini ta’minlash bilan bog‘liq. Agar o‘qituvchining taqdimot yaratish malakasi katta bo‘lsa qo‘shimcha animasion syujetlar kiritishi va shu bilan sayohatlar haqidagi ma’lumotlarni yanada boyitib, qiziqarliroq qilishi mumkin. Bunda bevosita geografik karta bilan emas balki sayohat yo‘nalishida mavjud hududlarga xos bo‘lgan tabiat va xalqlar, geografik ob’ektlarning suratlaridan foydalanish va shuningdek o‘qituvchining o‘zi yaratgan chizmalarni kiritish qumumkin bo‘ladi. Ularning o‘zaro harakatda namoyon bo‘lishi va ranglar, ovozlar kabi effektlar o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Taqdimotga ovozli izoh berishdan ko‘ra, o‘qituvchining hikoya tarzidagi izohi maqbul usuldir. Bunday taqdimotlar kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlashda katta samara beradi. Qadimgi sayohatlarni taqdimot shaklida namoyish qilish va ularga ijodiy yondashuv bolalarda geografiya fani va umuman ilmga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, ularning ma’naviy – ahloqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gapparov A., Haydarova S., Zaynutdinova D. Мустақиллик йилларида Жиззах вилояти аҳолисининг демографик ривожланиши //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
2. Haydarova S. et al. Modern Technologies in Improving the Quality of Teaching //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
3. Haydarova S., Usarov J., Eshnayev N. defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
4. Haydarova S. et al. MIRZACHO‘L O‘LKASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.

5. Haydarova S. GEOGRAFIYA FANI O ‘QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALABLARI //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
6. Gapparov A., Haydarova S., Kayumova M. Жиззах вилоятида урбанизация жараени ва унга таъсир этувчи омиллар //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
7. Haydarova S. GEOGRAFIYA DARSLARIDA ELEKTRON TAQDIMOTLARDAN FOYDALANISH //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
8. Haydarova S., Mavlonov X., Muxamedov O. Arid mintaqalarda yer resurslaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari (Jizzax viloyati misolida) //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
9. Komilova N. K. et al. Territorial structure of agriculture development in Uzbekistan in terms of economical geography //J. Advanced Res. L. & Econ. – 2019. – Т. 10. – С. 2364.
10. Nazarovna, T. Z., Azamkulovich, D. F., Jurayevna, M. N., & Abdusalomovna, H. S. (2016). Mortality and life expectancy rates of population of the Republic of Uzbekistan in the years after independence. *European science review*, (3-4).
11. Abdusalomovna K. S. FORMATION OF PRACTICAL COMPETENCIES OF SCHOOLCHILDREN IN GEOGRAPHY //International journal of discourse on innovation, integration and education. – 2020. – Т. 1. – №. 5. – С. 384-387.
12. ABDUSALOMOVNA H. S. GEOGRAFIYA FANI O ‘QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALABLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2021. – Т. 1. – №. 02. – С. 29-36.
13. Eshbekovich U. J., Jumayevich E. N., Abdusalomovna H. S. Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. 8. – С. 6-6.
14. Ҳайдарова С., Юсуфов Ж. КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДОШУВ АСОСИДА ГЕОГРАФИЯ ДАРСЛАРИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 2.
15. Gapparov, A., & Khaydarova, S. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*.